

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

---

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.  
**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

Farg'ona,  
2022.

**X.Mamajonov**

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar ..... 113

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova**

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari ..... 118

**A.Abduraxmonov**

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati ..... 122

**B.To'rayeva**

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari ..... 127

**N.Karimova**

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi ..... 134

**P.Ro'ziboyeva, B.Karimov**

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi ..... 138

**N.Avazov**

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi..... 143

**Sh.Axmedova**

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari..... 151

**N.Soatova**

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati ..... 155

**Sh.Turg'unov**

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida ..... 162

## TILSHUNOSLIK

**Sh.Iskandarova, F.Musayeva**

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir..... 168

**D.Ganiyeva**

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi..... 171

**Sh.Amonturdiyeva**

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari..... 176

**N.Xoshimova**

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi..... 184

**M.Hojiyeva**

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida..... 187

**V.Giyosova**

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar ..... 190

**S.Ahmadaliyeva**

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida..... 193

**H.Saipova**

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari ..... 197

## MATEMATIKA

**T.Ergashev, D.Urinboyeva**

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida..... 201

**B.Kadirkulov, M.Jalilov**

Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala ..... 209

**N.Murolimova**

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala..... 214

## FIZIKA - TEXNIKA

**X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov**

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ..... 223

**M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov**

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari..... 228

## “PADARKUSH”NING TA’SIRI VA JADID DRAMALARINING YARATILISHI

## ВЛИЯНИЕ "ПАДАРКУША" И СОЗДАНИЕ ДЖАДИДСКИХ ДРАМ

## THE INFLUENCE OF "PADARKUSH" AND THE CREATION OF JADID DRAMAS

Normurod Avazov<sup>1</sup>,<sup>1</sup>Normurod Avazov

– O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti tarixi va folklor” kafedrasida doktoranti, dotsent, filologiya fanlari nomzodi,

**Annatotsiya**

Maqolada Turkiston o‘lkasida dastlabki drama janri asosida taraqqiyparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yozilgan “Padarkush” asarining paydo bo‘lishi va uning boshqa o‘nlab jadid dramalarining yaratilishiga asos bo‘lganligi ko‘rsatiladi. Asar jadid dramaturgiyasining paydo bo‘lishi, shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Maqolaning maqsadi “Padarkush”da ko‘tarilgan ma‘rifatparvarlik g‘oyasining orqasidan jadid dramalarida ushbu mavzuning muammo sifatida olib chiqilishi o‘quvchiga yetkaziladi.

**Аннотация**

В статье показано появление произведения «Падаркуш», написанного сторонником просвещения и развития Махмудходжей Бехбудии на основе первого драматического жанра в Туркестанском крае, и оно является основой для создания десятков других современных джадидских драм. Произведение послужило главным фактором возникновения и становления современной джадидской драматургии. Цель статьи – донести до читателя проблему этой темы в современных драмах, следуя идее просветительства, поднятой в «Падаркуше».

**Abstract**

The article shows the emergence of the work "Padarkush" written by Mahmudkhoja Behbudi, a supporter of enlightenment and development, based on the first dramatic genre in the Turkestan region, and it is the basis for creating dozens of other modern jadid dramas. The work served as a major factor in the emergence and formation of modern Jadid dramaturgy. The purpose of the article is to bring to the reader the problem of this topic in modern dramas, following the idea of enlightenment raised in "Padarkush".

**Kalit so‘zlar:** drama, millat, jadid, milliy, pesa, Turkiston, eski, yangi, shakllanishi, to‘y, ma‘rifat, mustamlaka, jaholat, ilm, tafakkur.

**Ключевые слова:** драма, нация, джадид, национальный, пьеса, Туркестан, старое, новое, образование, свадьба, просвещение, колонизация, невежество, наука, мышление.

**Key words:** drama, nation, Jadid, national, play, Turkestan, old, new, education, wedding, enlightenment, colonization, ignorance, science, thinking.

**KIRISH**

“Padarkush” Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma‘rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan, professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi”[1].

“Padarkush”dan ta’sirlanib birin – ketin sahna asarlari yozila boshlandi. Bu to‘g‘rida taniqli olim Izzat Sultonning fikrlari e’tiborga molik: “Qodiriyning “Ahvolimiz” va “Millatimga” she’rlari hamda “Juvonboz” dramasi Behbudiyga taqlidan yozilgan”[2].

Olim Behbudiy ijodi va Qodiriyning dastlabki ijodini solishtiradi. Qodiriyning ijodi Behbudiy ijodidan ta’sirlanganligini aytib, ularning ijodini qiyoslaydi. “Baxtsiz kuyov” bilan “Padarkush”ni bir – biriga solishtirsak, Abdulla Qodiriy ijodidagi demokratik tendensiya ko‘zga tashlanib qoladi. Behbudiy “Padarkush” dramasi mahalliy burjuaziya muhitidagi buzuqliklarni ko‘rsatib, uni tuzatishga chaqirsa, A.Qodiriy boshqacharoq yo‘ldan boradi – boylarga ergashib, katta to‘y qilib, baxtsizlikka uchragan kambag‘al yigitning fojiasini tasvir etadi”[3].

XX asr davomida o‘zbek sahna asari tug‘ildi hamda o‘ydi. Aytish mumkinki, kamolotga erishdi. O‘ziga xos dastlabki sahna asari bor degan so‘zni faxr bilan tilga olishimiz mumkin. Shuning uchun ham, “Padarkush” adabiyotimiz tarixiga o‘ziga xos muhim o‘rin tutadi va uning ahamiyatini pasaytirish mumkin emas. O‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotini esa “Padarkush”

dramasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, ushbu pyesa Behbudiyning ham birinchi dramaturg sifatida o'zbek adabiyotiga olib kirdi.

Tadqiqotchi Sh.Rizayev "Jadid dramaturgiyasini davrlashtirish masalasi"ga alohida e'tibor qaratgan. U jadid dramaturgiyasining shakllanish davri uch asosiy davrga:

1. Shakllanish davri: 1911-1916 yillar;
2. Taraqqiyot davri; 1917 – 1924 yillar;
3. Jadid g'oyalarining tanazulli davri: 1925-1929 yillarga bo'lingan[4].

Mahmudxo'ja Behbudiy boshlab bergan jadid dramaturgiyasidagi tashabbusni keyin o'nlab jadid ijodkorlarimiz davom ettirdilar. Ular o'zlarining yaratgan dramatik asarlari bilan o'zbek badiiy adabiyotiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar. Jumladan, tadqiqotchi Sh.Rizayevning keltirishicha, 1911-1916 yillar o'rtasida o'ttizta dramatik asarlar yozilganligi aniqlashtiradi[5]. Muallif aytgani kabi bular tugal fikrlar emas, yanagi tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Shuni aytish kerakki, dunyoga kelgan dramalar paydo bo'lishining asosida Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" asarining turtki bo'lganligi muqarrardir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi mavzuni yoritib berishda foydalanilgan. Shuningdek, "Padarkush" ta'sirida yozilgan Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", H.Munning "Eski maktab – yangi maktab", N.Qudratulloning "To'y", Fitratning "Temur sag'anasi", "Abulfayzxon", "Chin sevis", "Hind ixtilochilari", "Shaytonning tangriga isyoni", Cho'lponning "Yorqinoy", Avloniyning "Partugaliya inqilobi", Hamzaning "Muxtoriyat yoki avtonomiya" kabi asarlar o'rganildi.

Maqolada Behbudiyning Turkiston o'lkasida ma'rifatsizlikdan qutulish va o'lkada milliy g'oyani ilgari suruvchi millat taqdirini had qilishga qaratilgan obrazlar talqinini yoritib berish uchun tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

### MATNLAR VA MUHOKAMA

A.Qodiriy "Padarkush"dan keyin "Baxtsiz kuyov" nomli dramasi 1915-yil yozdi. Ayni paytda 1915-yil 23-sentabr kuni "Turkestanская vedomosti" (№210) gazetasida "Abdulla Qodiriyning Turkiston musulmonlari hayotidan olingan to'rt pardali "Baxtsiz kuyov" nomli sahnalarning teatri" ga G.Andriyevning taqrizi[6] (rus tilida) e'lon qilindi. Unda taqriz muallifi Turkiston o'lkasida "teatr yozuvchiligidan birinchi kashshofi Samarqandlik, xalq arbobi Behbudiy bo'lib, u birinchi sahnalarning dramasi - "Padarkush" (ota qotili)ni yozdi", deb taqriz e'lon qildi.

A.Qodiriy 1919-yili "Bizda teatru ishining borishi" maqolasida: "Padarkush" risolasi Turkistonning umuman, dearli har bir katta-kichik shaharlarida mavqi' tomoshaga qo'yilib, yoshlarimiz uchun bir daraja teatru maqsadi onglashilur. Mana shundan so'ng bizda teatr masalasi bosh ko'tarib, yarim – yorti teatr risolalari yoza boshlaymiz"[7]. Ko'rinadiki, A.Qodiriy "Padarkush"ni ayni davrning fajeaviy asar sifatida qaradi, "Baxtsiz kuyov" dramasi "Padarkush"dan ta'sirlanib yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim, deb yozgan[8].

A.Qodiriyning teatr va teatr asari to'g'risidagi fikrlari bevosita M.Behbudiy fikrlarining davomi sifatida ko'rinadi. Jumladan, "Teatr turmushdagi yetishmagan va ortiqcha yerlarni ko'z oldimizga mujassam etib ko'rsatuvchi bir oynadir. Ish shundog' ekan, biz ham o'z teatruvimizni ko'rganda, turmushimizning aksini ko'rmagimiz kerakdir"deb teatr sohasida kirib kelayotgan yozuvchilarimizga ham adabiyotga nisbatan yuksak e'tiborda bo'lishlari istaydi. Shuningdek, muallif sahnamizda drama va komediya asarlari yo'q deydi. Ya'ni: "Komediya degach, nima to'g'ri kelsa, shundan kula bermak emas, balki o'zining tub shartiga muvofiq etib kulmak, drama yozg'anda mavzuni turmushimizning naq chirik bir joyidan olmoq va shuning ila barobar adabiyot torozusiga solib yozmoq kerakdir"[9].

A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" asari "Turkiston maishatidan oling'on to'rt pardalik fojia"dir. Asarning mavzusi ayni payt uchun dolzarb tanlangan. Bu bugungi kun uchun ham o'z kuchini yo'qotgan emas. "Baxtsiz kuyov" to'rt pardali, "Padarkush" ham to'rt pardali sahna asari. "Padarkush"da boy obrazi mavjud, "Baxtsiz kuyov"da ham boy obrazi ishtirok etadi. U obrazlar xarakter jihatidan bir – biriga yaqin. Yaqinligi ikkalasi ham boylikni yaxshi ko'radi. Ular hamma narsadan pulni ustun qo'yadilar.

"Padarkush"da ilmsizlik oqibatida oilada fojia ro'y berganidek, "Baxtsiz kuyov"da ham oqibat boyni ilmsizligi, Solihning ham ilmsizligi natijasida drama fojia bilan tugaydi. Chunki,

## ADABIYOTSHUNOSLIK

boyning ko'ziga urf-odat, hammadan oldinda bo'lish, boylik birinchi o'rinda turadi. U shariat qoidalariga ham rioya qilmaydi. Obro' – e'tibor, maqtanishni, o'zini ko'rsatishni yaxshi ko'radi. Hamma narsadan o'zining nafsini ustun biladi. Pul turgan joyda farzandning hayoti ko'rinmaydi.

“Padarkush”da: Boy.Mani xayolimg'a, dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga bo'lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boylar chilen bo'lub, har kim chilnlarni izzat qilur, hatto ishi tushaturg'onlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltfotig'a olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomaladorlar singib, mayda-mayda bo'lur, bildingizmi?”.

“Baxtsiz kuyov”da: Fayziboy- Men sizlarga nom-banom tushunturay, so'ragan g'allalar to'yni oshig'a ham, nonig'a ham ketadur. Qo'y va otlar so'yulub yog'-go'shti oshga ketadur. Buni ichida charlar, yuz ko'rsatarlari ham bor. Pulga mis asbob, ikki dona palak, ikki dona gul ko'rpa, sakkiz dona dorpo'sh, qizimg'a bo'yin tumor, qo'ltuq tumor, tillaqosh, ziraklar..Shundan boshqa mayda-cho'yda narsalar bilan tamomlanadur. Nonlar bo'lsa, to'yg'a kelganlarga tarqatiladur. Holvo, boshqa narsalar ham.Endi tushudingizlarmi, manga mundan nima qoladur?”.

Dramalardagi boylarning kaltabinligi, ilmsizligi va kelajakni ilmda ko'rmaganligi asarni fojeali tugashiga olib keldi. Chunki, o'qimaslik va ilmsizlik oqibatida faqat boylik orttirishdan boshqa narsani o'ylamaydi. Asarlar mazmunan bir – birlariga o'xshamasada, ammo yozuvchilarning niyatlari millatni ilmsizlik balosidan qutqarish chizig'ida birikadilar.

“Baxtsiz kuyov”da muallif ellikboshi obrazida zamonani ko'ra bilgan inson tasvirlanadi: “Isrofning ziyonini ko'rdingizlar, Fayziboydan ibrat olinglar, ko'rdingizlarmi, isrof qilub, oxiri holi nima bo'ldi? Shari'ati mustafog'a bo'ysuninglar, endi ko'zlarigizni ochinglar. Bid'at to'yg'a isrof bo'ladurgan oqchag'a o'g'lingizlarni o'qutinglar, yoki jamiyati xayriyag'a iona qilinglar. O'g'ul o'qutmoq yaxshi ham farzdur, to'yg'a isrof qilmoq bid'atdur”, deydi.

Ma'lumki, “Padarkush”da: Ziyoli. Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo'ldan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz-musulmonlarni o'qutmoqqa sa'y qilmog'imiz lozimdur, vaholanki, dini shariatimiz har nav naflik ilm o'qumoqni beshikdan mozorg'acha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm – hukmi shariatdir”.

A.Qodiriy “Baxtsiz kuyov” dramasida Behbudiy aytganidek: “dinning qadri ilmdir, ilmning qadri foydasida”gi ko'rsatmalarga amal qilingan holda mahalliy illatlar ochib tashlanadi. Dramada “jadid adabiyoti uchun xarakterli alomat, ya'ni san'atkorning o'rnini voiz egallashi, nasihatgo'ylik, “oqartiruvchilik” va boshqalar “Baxtsiz kuyov”da yaqqol ko'rinadi”[10].

“Baxtsiz kuyov” yozilganida G.Andryev Behbudiydan keyin “boshqa sart teatri reptuarlari asta-sekin o'sib bordi”deydi. “Baxtsiz kuyov”ning syujetiga to'xtaladi. Dramaning har bir obraziga alohida munosabat bildiradi. Muallif to'ylar qilishda isrofgarchilikka qarshi kurashish g'oyasini ilgari surgan, drama ibratli, axloqiy xususiyatlarga ega, deydi. Lekin “badiiylik yetishmaydi” degan fikrlarini bildiradi.

Tadqiqotchi olim M.Rahmonov “Baxtsiz kuyov” to'g'risida: “Garchi avtor pesada sinfiy kurash temasini ko'tarmagan bo'lsa ham revolyusiyadan ilgarigi Turkiston sharoitida boylar bilan kambag'allar o'rtasida farqni va mehnatkash xalqning og'ir ahvoli va uning fojialarini sotsial fonda chuqur tasvirlab, ekspluatator sinflarining insofsizlik va shafqatsizliklarini ko'rsatib beradi”[11].

Aytish kerakki, birinchidan, asarga davr nuqtayi nazaridan turib yondoshmoq lozim. Asarda avtorning badiiy-g'oyaviy cheklanganligi ko'rinsada, uning qahramoni Solih eskilikka qarshi kurashmaydi, faqat e'tiroz bildiribgina qo'ya qoladi. Pyesada millat vakilining ijobiy qahramon sifatida ko'rsatilishi, mahalliy boylarning jaholatga botganligining ochilishi, ularga nisbatan, ijtimoiy tuzumga qarshi nafrat uyg'otishi bu asarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Jadid dramaturgiyasining asosini milliy g'oya tashkil qiladi. Ko'rinadiki, XX asr boshida Turkiston o'lkasida milliy uyg'onish tarixiy zaruriyat va ma'naviy ehtiyoj tufayli paydo bo'ldi. Bu ma'naviy ehtiyojda jadid adabiyoti katta rol o'ynadi. Maydonga kelayotgan har bir asarlar millat ongini o'stirishga, uni yuksaltirishga, islohatlashtirishga qaratdi.

“Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti”da: “Yozuvchining “Juvonboz” hikoyasi va “Baxtsiz kuyov” dramasi Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi bevosita ta'sirida yaratilgan.

“Baxtsiz kuyov” mazmunan Behbudiy dramasi bilan farq qilsa-da, jadidchilik g‘oyasi yetakchilik qiladi. Ammo, “Juvonboz” hikoyasi syujeti “Padarkush”ga juda yaqin turadi”[12].

A.Qodiriyning “Juvonboz” hikoyasining asosiy qahramoni – katta savdo ishlari bilan shug‘illanuvchi Raufboyning o‘g‘li Sa‘dulladir. U ilm olmasdan, o‘qishlarga bormasdan iflos, fahsh yo‘llariga, otasining va oilasining bor mol – dunyosini o‘zining kayf-safosi uchun yo‘qotadi. Natijada odam o‘ldirib, qo‘li qonga botib, o‘zining umrini ham vayron qiladi.

“Juvonboz”ning syujeti “Padarkush” ga yaqin turishi shundaki, har ikkida ham o‘qimasdan, ilmsizlik oqibatida Sa‘dulla bilan Toshmurodning kayfu – safoga berilishi ikki oilada ham fojiiyehani yuzaga keltiradi. A.Qodiriyning “O‘zbek qarindoshlarimizning diqqatlarina” [13] maqolasida keltirganiday: “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l” g‘oyasini ilgari suradi.

Agar “Padarkush”da Turkiston o‘lkasida farzandlarning o‘qimasligi natijasida yomon yo‘llarga kirib, ota qotiliga aylansalar, “Juvonboz”da esa ilm o‘rganmaslikning oqibatida mahalliy o‘lkadagi farzandlarning juvonboz va besoqolboz kabi iflos ishlar bilan shug‘ullanib o‘z umrlarini barbod qilayotganligi ochib tashlanadi.

Hoji Muin nisbat berilganda “Behbudiyning munosib shogirdi” deyiladi. Shuningdek, akademik Naim Karimov: “..baxmal pardasi ilk bor ko‘tarilgan o‘zbek teatrining Mahmudxo‘ja Behbudiydan keyingi ikkinchi tashkilotchisi Hoji Muindir”, deb yozadi[14].

Hoji Muin Mahmudxo‘ja Behbudiyga yozgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” so‘z boshida: “Har millatning o‘ziga maxsus madaniyati, adabiyot va matbuoti, milliy tarix va tarjimai ahvol kitoblari, shoir va adiblari bo‘ladi. Bir millatning taraqqiyoti madaniyasi qaysi darajada ekanini bilmak uchun uning adabiyot va matbuotini bir daraja ko‘zdan kechirmak lozimdur” deb yozdi. Uning bu so‘zlari uning o‘ziga ham tegishli edi. Demak, millat taraqqiyosida Hoji Muinning o‘zbek jadid adabiyotiga qo‘shgan hissi ham alohida ajralib turadi.

Hoji Muin millat taraqqiyotsizl igi va uning taqdirini “Eski maktab, yangi maktab” nomli Turkiston hayotidan olingan uch pardali dramatik asarida ko‘rsatib berdi[15]. U Behbudiy boshlab bergan o‘lkadagi ma‘rifatsizlik uchun kurash g‘oyasini davom ettirdi. Asarning mazmunida eski maktabning o‘qitish tizimi, uning ahvoli tasvirlanadi. Unda eski maktab muallimi Mulla Ochildining maktab xonasi qo‘yidagicha ko‘rsatilgan: “ Maktab ichi zindondek qorog‘u bo‘lub, o‘rtasida o‘choq, devorig‘a bir falaq osilgan. Bir yoqda safol oftobda suv, ikkinchi yoqda yirtiq ko‘rpacha ustiga uchto‘rt qabat iflos kiyum kiygan, ko‘knoriaft va asabiy majoz bir domla o‘tirgan, bir yonida choynak, piyola va bir dona qoq non, oldida to‘rt ayog‘lik uzun taxta, taxtaning naryog‘ida xas-paxol ustida Salim va Melik degan ikki bola o‘z saboqlarini o‘qub turubdilar”. “Domla (Qo‘lida tayoq) – Ha, o‘qunglar!”.

Xona qorong‘u. Maktab havlisida o‘choq. Eski yirtiq ko‘rpachalar to‘shalgan. Domla uch – to‘rt qavat ustiga eskirib ketgan kiyimlarni kiyib olgan. –Xas-paxol to‘shalgan. Unda bor-yo‘g‘i ikkita o‘quvchi. Domlaning ko‘lida kaltak tayoq. Manzara juda xunuk. Muallif domlaning o‘qitish xonasini tasvirlashning o‘zidayoq eski maktab kartinasini tasvirlab berdi. Eski usuldagi o‘qitish tizimidagi bolalarga munosabat masalasi insoniylikka to‘g‘ri kelmaydi. Ya‘ni: Domla(tayoq bilan Salimni urar) – Xatga qarab o‘qu-e, badbaxt!” deb bolani o‘rib kaltaklashi o‘ta daraja tarbiyasizlikning yuqori ko‘rinishi edi. U ya‘ni eski usuldagi domla yangi usuldagi jadid maktablariga tishtirnog‘i bilan qarshi. Mana qadim usuldagi domlaning yangi usuldagi o‘qitish tizimiga munosabatini ko‘ring. O‘qiyotgan bolalardan: - Domla! Usul jadidi nima? Usul jalidi yaxshimi?, deb so‘raganida: – Domla (achchig‘lanib) – Qo‘y, san bu gaplarga tushunmaysan. Usuli jadid deb o‘shal oba-bobo-dada deb bema‘ni safsata gaplarni o‘qutadurgan maktabni aytarlar. U maktab odamni dindand chiqaradi”.

Muallif asarga Komilboy obrazini kiritganki, bu obrazda millatni himoyachisi, ochiq fikrli, yangi usuldagi maktab tarafdori bo‘lgan shaxs gavdalanadi. Asarning ikkinchi pardasida qadim bilan yangi usuldagi jaddilarning bahs va munozaralarga kirishi tasvirlanadi. Komilboyning qo‘yidagi so‘zlari bilan boshlanadi: “ Zamonamiz ilm va hunar zamonidir Ushbu zamonda o‘zga millatlarga asir bo‘lmay, rohat bilan yashamoq uchun zamoniy ilm va hunarlarni bilmoq lozimdur. Hushyor va mutamaddun bo‘lgan millat har vaqt o‘zining huquqini va dinini saxlamoq tariqasini bilib, zamoni kelganda ushbu yo‘lda o‘z jonini fido qilmoqqa hozir bo‘lub turar”. Muallif Komilboy tomonidan yangi usuldagi maktab tashkil etilib, amalda o‘qitish tizimi oshkora hammaning oldida natijalar ko‘rsatiladi. Immom Komilboyga tashakkurnoma aytib: “Millat bolalarini tarbiya qilganingiz

## ADABIYOTSHUNOSLIK

uchun millat nomidan sizga tashakkur qilaman! Ilohi xudovandi karim sizdek maorifparvar millat xodimlarining imsolini ziyoda qilg'ay!"

Dramaning mavzusi."Padarkush"da, "Baxtsiz kuyov"lardagi ilmga bo'lgan bee'tiborli boyning o'rniga, "Eski maktab, yangi maktab" dramasiidagi Komilboy: "Ushbu zamonda o'zga millatlarga asir bo'lmay, rohat bilan yashamoq uchun zamoniy ilm va hunarlarni bilmoq lozimdur. Hushyor va mutamaddun bo'lgan millat har vaqt o'zining huquqini va dinini saxlamoq tariqasini bilib, zamoni kelganda ushbu yo'lda o'z jonini fido qilmoqqa hozir bo'lib turar" degan fikrni ilgari suradigan boylardan edi. U millatni yangi usuldagi maktablarda tezda savod chiqarish lozimligini isbot qilib ko'rsatdi. U o'zining hisobidan elu-yurtga yangi usuldagi jadid maktabini ochib, maktabning ahamiyatini ko'rsatdi. Xalq, millat o'z ko'zi bilan ko'rib unga ishondi. Eski usuldagi maktab bilan yangi usuldagi maktabning yer bilan osmoncha farqi borligini millat amalda ko'rib tushunib yetdi.

"Eski maktab, yangi maktab" dramasiining g'oyasi birinchi o'rinda turadi. Asarda so'zning san'ati bo'lgan til ham katta ahamiyatga egadir. Yozuvchining tili tushunarli, xalqona tilda yozilgan. Asar badiiy qochirmalardan, xalq maqol va matallaridan keng foydalangan bo'lmasada ayni davrda o'z maqsadiga erishgan.

Behbudiyning ma'rifat orqali taraqqiyga borish g'oyasi jadidlarning oldiga qiyin, sharafli va mas'uliyatli vazifani yuklagan edi. Yangi, zamoniy ilmdan xabardor bo'lmagan millat, qolaversa jamiyat tanazzulga uchrashi kerakligini tushunib yetgan jadidlar millatni erkin va ozod ko'rish uchun oldinga qarab intildilar.

Jadid dramaturgiyasining boshlang'ich namunalaridan biri Nusratulla Qudratulla va Hoji Mu'in Shukrulla tomonidan 1914-yilda yaratilgan "To'y"[16] nomli to'rt pardali va to'rt manzarali drama asaridir.

"To'y" dramasi to'g'risida 1915-yil 23-sentyabrida "Turkestanskaya vedomosti" gazetasida G.Andryevning "Sartovskiy teatr" maqolasida: "Behbudiyning qo'li yengil kelganidan, yana bir sart dramaturgi Qosim Saidiy Turkiston hayotidan olingani "To'y" nomli pesasini yozdi. U ham katta muvaoffaqiyatlarga erishdi[17]".

Tadqiqotchi M.Rahmonovning "O'zbek teatri tarixi" kitobida: "1914-yil 1-dekabrda turuppa Z.Bayazidskiy rejissyorigida Qudratullo Nusratulloning "To'y" pesasini ko'rsatdi"[18].

Tadqiqotchilar M.Qodirov va S.Qodirovalarning "O'zbek teatri tarixi" nomli darsligida "Hoji Mu'in Shukrullo va Nusratulla Qudratullaning "To'y" asari.. – drama. "Padarkush" ta'sirida yozilgan"[19], deyiladi.

"To'y" asarining birinchi betida: "Turkiston maishatidan olingan 4 parda va 4 manzaralik teatr risolasi" deb yozib qo'yilgan. Asarning janri aniqlashtirilmagan. Uning mavzu va matni mohiyati jihatidan, tuzilishi, badiiy umumlashtirilishi, hayoti materiallarini qamrab olishi, syujetlarning o'ziga xosligiga ko'ra drama janrini o'zida mujassamlashtiradi.

"To'y"ning mavzusi dolzarb tanlangan. Behbudiy to'y masalasida juda ko'plab muammoli publitsistik chiqishlar qilgan. Uning: "o'rta qism to'y va ta'zivalarga ikki ming so'mdin besh ming so'mg'acha va a'lo to'ylarda o'n ming so'mg'acha sarf etmoq oxirgi vaqtlarda odat hukmig'a kirdi. Boylarga aytilaturg'on so'z yo'q, faqat kambag'allar va boynomalarga ushbu to'y va ta'ziya ko'p og'ur yuk bo'ldi"[20].

Asarning bosh qahramoni-boy. Pyesada o'zini hammaga katta boy sifatida ko'rsatmoqchi bo'lgan personaj olingan. U sunnat to'yini o'tkazmoqchi bo'lib, bir – necha kunlab ko'pkari uyutiradi. Atrof boylariga va tanish – bilishlariga to'nlar kiydirib, qo'sha – qo'sha ashulachilarni chaqirib to'yda barcha topgan – tutganidan ayriladi.

Dramada "Padarkush"dagi obraz singari bu yerda ham Mirzo obrazi kiritilgan. U bankning xizmatkori. Mirzo boyga tushuntirmoqchi bo'ladi: "To'y va azalarda pul isrof qilmoq odati faqat bizning Turkistonda rasm bo'lub qolubdur. Boshqa mamlakat musulmonlari shunday ahmoqlikni aslo qilmaylar. Shuning uchun alar kundan - kun boy bo'lub, bizlar esa bu isrofgarlik sababidan mulk va molimizdan ayrilib, gadoy holiga tushmakdamiz. Boy bobo! "Do'st achitib aytadur, dushman kuldurub", derlar. Man sizga xolis do'st bo'lganim uchun aytarmanki, qancha mashaqqatlar ko'rub topkan oqchangizni behuda yerga isrof qilmang".

Dastlab Mirzoning gapi boyga yoqmaydi. U mag'rurlanib, achchig'lanib qo'yidagi so'zlarni aytadi: "E, Mirzo! San bir qatra joning bilan manga nasihat berasan. Man sandan hali to'y masalasini so'raganim yo'q. Shuncha ota – bobomizdan qolgan urf-rusumni sani bir og'iz gapining



bilan barham beramizmi? Bor, san nasihatini o'zungga qill!", deydi. Boy o'ziga bino qo'yib, atrofiga o'ziga o'xshagan Xidirboy, Oqsoqol, Orzuqul, Bobo Xitob kabi hamtavoqlarini yig'ib mayxo'rlik majlisini o'tkazadilar. Ichkilib ichib, juvonlarning salomatligiga ko'taradilar. Boy faqat to'yni o'zini ko'z-ko'z uchun qilganligi muallif tomonidan ochiladi. Hatto, to'yni ovozini eshitib, qornini to'ydirish uchun gadoy kirib kelganida, boy: "padar la'nat, sani kim bu yerga taklif qildi?Chiq, ket! Ko'zimga ko'rinma!, deb quvib soladi. Natijada boy kasodga uchraydi.

Muallif boyning o'zi pushoymon bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa kech bo'lgan edi. Avtorning xulosasi bo'yicha agar boy ilmdan xabari bo'lganida, ma'rifatli inson bo'lganida bu kabi holatlar bo'lmasligini o'qtiradi. U yana Mirzo obrazi orqali qo'yidagi so'zlarni aytadi: "Bizlarni ilmsizlik sharobxo'r qildi, juvonboz qildi, ahmoq va isrofkor qildi. Mana, oxir beobru va xonavayron qildi. Boshqa millatlar topgan pullarini ilm va maorif, din va millat yo'lga sarf qilub, kundan-kun taraqqiy topsalar, bizlar jaholat va nodonligimiz sababidan topgan molimizni hatto bog' va hovlilarimizni sotib, to'y va aza, bazm va ko'bkori yo'lig'a harajat qilub, o'zgalarning bir parcha noniga muhtoj va xor – zor bo'lmakdamiz. Agar biz, musulmonlar, ushbu fursatlarni g'animat bilub, to'y va azada, urf va rasm bo'lgan isroflarni barham bermasak, ozgina vaqtda hozirgi mulk-molimizdan ham ayrilub, o'zimiz darbadar bo'lurmiz". Ko'rinadiki, dramada "Padarkush"da ilgari surilgan: ilmsizlik fojiga olib borishi g'oyasi ilgari suriladi.

Muallif boy obrazini tasvirlashda, obraz nutqini jonlantirishda xalq og'zaki ijodidan, ya'ni xalq iboralari, maqolalaridan ham keng foydalandi:

**Mirzo** – Boy bobo! **"Do'st aчитib aytadur, dushman kuldurub"**, derlar. Man sizga xolis do'st bo'lganim uchun aytarmanki, qancha mashaqqatlar ko'rub topkan oqchangizni behuda yerga isrof qilmang". Qolaversa, asardagi imom, oqsoqol kabi boshqa obrazlar haqqoniy gavdalantirilgan, dramadagi to'y manzaralari ham eski urf-odatlarining salbiy ko'rinishlari ham ishonarli yoritib berilgan.

Jadid dramalarining davomchilaridan biri Abdulla Badriydir. Uning "Juvonmarg", "Ahmoq" kabi sahna asarlari shular jumlasidandur[21]. A.Badriyning "Juvonmarg" asari "Turkistonliklar maishatidan olinib yozilgan to'rt pardalik fojiadur" deb yozilgan asarda. Fojianing syujet mazmuni ta'sirli. Asarning qoq nuqtasida ma'rifatsizlik fojiga olib kelishi g'oyasi yotadi. Dramaning obrazlari muallif tomonidan shunday tanlanganki, ular voqeaning rivojida ta'sir etmasdan qolmaydi. "Juvonmarg" atamasi xalq o'rtasida qo'llaniladigan atama. Ammo, hozir dramaning shunday nomlanishi butun asar mazmunini o'zida mujassam etadi. Dramada Turkiston o'lkasida yashayotgan ayollarning qismati markaziy o'rinda turadi. Toshfo'lot ismli bir johil otaning ichishga mukassidan ketishi oqibatida oila barbod bo'ladi. Ichkilik orqasida u farzandiga ham o'zining xotiniga ham bir tovar sifatida qaraydi. Inson sifatida eng pastkashlik botqog'iga botgan tuban odamning obrazi gavdalantirilgan. Voqealarning rivojida u o'quvchida o'ziga nisbatan shunday nafrat o'yg'otadiki, o'quvchi uning bu darajaga kelishidagi sabablarini qidiradi. Sabab sifatida masalaning ikkinchi tomonida mustamlakachilik tuzumi ham turadi. Toshfo'lotning bu darajaga kelishida ichkilikning mavjudligi. Mustabid tuzumning salbiy oqibatlaridan eng kattasi bu ichkilikning kirib kelishi edi. Ichkilik Toshfo'lotlarni xarob qildi. Turkiston o'lkasida minglab oilalar ichkilikning qurboni bo'idilar. Muallif millatning, kelajagi, uning nasli buzilmasligi, teng huquqlilik uchun kurashdi. Bu uning oddiy, o'qimagan oilaning farzandi To'tioy obrazida rivojlanib boradi. Muallif oddiy qiz To'tioy obrazida jasorat bilan muammolarni yuzaga chiqardi.

To'tioy: "Biz, turkiston xotun-qizlaridek badbaxt ham mazlumlar hech bir yerg'a yo'q. Bizlarni badbaxt qilgan narsa ham nodonlikdur. Oh, nodonlik!. Bizning boshimizga bitgan, bizni xor-zor, rasvo etgan nodonlik!...O'z huquqimni olmoq uchun holok bo'lsam ham bo'lurman. Ul o'z mayliga qarab ish qiladurgan zamonlar o'tub ketgan. ..bizlar hozir erlarimiz bilan bir huquqda bo'lmog'imiz tegush...Men hayvon emas, balki boshqa odam bolalaridek erkin ixtiyorli bir odam bolasidurman", deb o'z huquqi yo'lida kurashmoqchi bo'lgan qizning fikrlari orqali inson huquqlarining paymol etilishi ko'rsatib beriladi.

### XULOSA

Xulosaki, dramada yozuchining maqsadi Turkiston o'lka oilalarining ijtimoiy og'ir muhitda yashayotganligi, mustabid tuzum tomonidan ezilayotganligi va ma'rifatsiz qolayotganligi, natijada fojialarga olib kelayotganligini ochish edi.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Jadid adabiyotining g'oyasi ma'rifatsizlikka barham berish va ozodlikka intiladigan, kurashadigan millatning qiyofasini yaratish edi. Qolaversa, jadid adabiyotining darg'alaridan hisoblangan A.Fitrat, A.Avloniy, Cho'lpon, Hamza kabi ijodkorlar ham o'lkada millat tanazulining sabablarini ilmsizlikdan deb bildilar. Ular o'lka millatining iqtisodiy va madaniy turmush darajasini yuksaltirishning asosiy yo'li ilm olish ekanligini anlab yetdilar. Chunki ularning barcha targ'ibotlarida, she'rlarida, asarlarida ilmni targ'ib va tashviqoti oldingi o'rinda turdi. Ularning quroli adabiyot orqali ilm g'oyasini yuqoriga olib chiqdilar. Jadidlarning barcha asarlari, dramalari milliy g'oyani ko'tardilar. Jumladan, Turkiston o'lka millati uchun tamomila begona bo'lgan ichkilik, fohishabozliklar ular uchun sharmandalik edi. Bu sharmandaliklar esa esa millatda padarkushlik fojialarini keltirib chiqarardi. Bu muammolarni ochiq – oydin ko'rsatish maqsadida jadidlarning dramatik asarlari maydonga keldi.

Shuningdek, Behbudiyning "Padarkush"dan tashqari "Oq yelpog'ichli chinli xotin", "Bir a'mlo bolaning hasrati", "Bir vafolik zaifani xususida hikoya" [22] kabi badiiy asarlari mavjudligini ham ta'kidlash lozim.

Behbudiyshunos olim Halim Saidovning "Yangi adabiyotimizga xayrli yodgorlik" tadqiqoti "Oq yelpog'ichli chinli xotin" hikoyasi to'g'risidagi ilk ilmiy munosabatini bildirdi. Olim: "hikoyaning o'ziga xosligi shundaki, uni o'qiganda inson ta'sirlanadi, lazzat oladi. Fikrimizcha, o'zbek hikoyachiligi yo'nalishini belgilashda ham Mahmudxo'ja Behbudiy ilk mashqi bilan yosh adiblarga namuna bo'lgan." [23]

Fitratning "Temur sag'anasi", "Abulfayzxon", "Chin sevis", "Hind ixtilochilari", "Shaytonning tangriga isyoni", Cho'lponning "Yorqinoy", Avloniyning "Partugaliya inqilobi", Hamzaning "Muxtoriyat yoki avtonomiya" kabi asarlari ham Behbudiyning millat uchun g'oyasini targ'ibotchilari va kurashchilari edilar. Jadidlar asarlarini turli usullarda yozdilar. Jumladan, mustamlakachilik, bolshevistik tuzumning g'ildiragi ostida davr voqealarini boshqa makonlarga ko'chirgan holda voqealarni tasvirladilar. Ularning qahramonlari Hindistonda, Portugaliyalarda millat va Vatan uchun kurashdilar. Bu asarlarning umumiy g'oyasi bitta millatning ozodligi, millatning mustaqilligi, ularning shu yo'lda birlashishdan iboratdir.

## Adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov B, Yusupov SH, Dolimov U, Rizayev SH, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: "Ma'naviyat", 2004. – B.255 (Qasimov B, Yusupov SH, Dolimov O, Rizayev SH, Ahmedov S. Uzbek literature of the national renaissance).
2. Sulton I. Asarlar. To'rt tomlik. Ikkinchi tom. "G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti". – T.:1972. –B. 336(Sulton I. Works. Four-roof. Second roof).
3. Sulton I. Asarlar. To'rt tomlik. Ikkinchi tom. "G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti". – T.:1972. – B.336 (Sulton I. Works. Four-roof. Second roof).
4. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: "Sharq".- B.110(Rizayev Sh. Jadid drama).
5. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: "Sharq".- B.129 (Rizayev Sh. Jadid drama).
6. Андреев Г. Сартковский театр "Бахтсиз кияу" драма въ ихъ действияхъ изъ жизни Туркестанскихъ мусульманъ Абдулла кадыри. "Туркестанская ведомости", 1915 года 23 сентября, №210(Andreev G. Sartovsky theater "Bakhtsiz kiyau" drama in their actions in the life of Turkestan Muslims Abdullah kadiri).
7. Qodiriy A. Bizda teatru ishining borishi// "Ishtirokiyun" gazetasi, 1919 yil 11 dekabr, 239-soni(Qadiri A. We have the course of the work of teatru).
8. Qodirov M, Qodirova S. O'zbek teatr tarixi. Darslik. – T.: "Niso Poligraf", 2019. – B. 80(Kadyrov M, Kadyrova S. History of Uzbek theater).
9. Qodiriy A. Bizda teatru ishining borishi. "Ishtirokiyun" gazetasi, 1919 yil 11 dekabr, 239-soni (Qadiri A. We have the course of the work of teatru).
10. Qosimov B, Yusupov SH, Dolimov U, Rizayev SH, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: "Ma'naviyat", 2004. – B. 402 (Qasimov B, Yusupov SH, Dolimov O, Rizayev SH, Ahmedov S. Uzbek literature of the national renaissance).
11. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. – T.: "Fan", 1968. – B.340(Rakhmanov M. History of the Uzbek theater).
12. Qosimov B, Yusupov SH, Dolimov U, Rizayev SH, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: "Ma'naviyat", 2004. – B. 402 (Qasimov B, Yusupov SH, Dolimov O, Rizayev SH, Ahmedov S. Uzbek literature of the national renaissance).
13. Qodiriy A. Diyor bakr. Uchinchi jild. – Toshkent: "Info Kapital Group", 2017. – B.542( Qadiri A. Land of bakr. Volume three).
14. Muin Hoji. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2010. – B. 8 (Moin Haji. Selected works).
15. Muin Hoji. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2010. – B.181-205(Moin Haji. Selected works).
16. Qudratulla N. va Muin Hoji. To'y. – T.: "Sharq", 1997. – B. 149-171( With Might N. and Moin Haji. Wedding).
17. Andryev G. Sartovskiy teatr. "Turkestanskaya vedomosti" gazetasi, 1915 goda 23 sentyabrya(Andryev G. Sartovsky theater).

18. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. – T.: “Fan”, 1968. – B.337(Rakhmanov M. History of the Uzbek theater).
19. Qodirov M, Qodirova S. O'zbek teatri tarixi. Darslik. – Toshkent: “Niso Poligraf”, 2019. – B.79-80(Kadyrov M, Kadyrova S. History of the Uzbek theater).
20. Behbudiy M. Samarqandda islohi rusum majlisi. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – T.: “Akademnashr”, 2018. – B.242-244( Behbudiy M. The assembly of Islam in Samarkand).
21. Badriy Abdulla. Juvonmarg. – T.: “Sharq”, 1997. – B.45(Badriy Abdullah. Juvonmarg).
22. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: Akademnashr,2022. – B.4-110(Behbudiy M. Selected works).
23. Saidov H.Yangi adabiyotimizga xayrli yodgorlik//Sharq yulduzi. - №5, 2018. – B.136-139 (Saidov H.Auspicious monument to our new literature).